

KATQAL'A TARIXI SAHIFASI

G'affarov Maqsadbek Qadamboyevich

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

Boymurzayeva Hayotxon Asadovna

Urganch davlat universiteti Arxeologiya yo'nalishining 1-kurs magistranti.

Annotatsiya: *Maqolada Xorazm vohasida shaharsozlik madaniyati taraqqiyotida Katqal'ani tarixiy o'rni tahlil qilingan.*

Kalit suzlar: *at-Taboriy, al-Belazuriy, al-Muqaddasiy, G.Ya.G'ulomov, Baratov.P, al-Beruniy, Amudaryo, Xorazm, Al-Fir, Afrig', Katqal'a.*

Аннотация: *В статье анализируется историческая роль Каткала в развитии градостроительной культуры Хорезмского оазиса.*

Ключевые слова: *ат-Табари, ал-Белазури, ал-Мукаддаси, Г.Я.Гуломов, Баратов.П, ал-Беруни, Амударья, Хорезм, Аль-Фир, Африг, Каткала.*

Abstract: *The historical role of Katkala in the development of urban planning culture in the Khorezm oasis is analyzed in the article.*

Key words: *al-Tabari, al-Belazuri, al-Muqaddasi, G.Ya.Gulomov, Baratov.P, al-Beruni, Amudarya, Khorezm, Al-Fir, Afrig, Katkal'a.*

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda²⁸

Kirish. Mazkur maqolada Xorazm vohasi o'ng sohili sarhadida o'troq va ziroatkor aholi hayot va ijod uyg'unligi bo'lgan Katq'alani topografik joylashishi, mudofaa tizimi doirasida antik, ilk va rivojlangan o'rta asr jamiyati rivojlanishida tarixiy o'rnini yoritish nazarga olingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amudaryo o'ng sohili etagiga ulangan tekislikda mil.avv. IV asrda ziroatkor aholi tomonidan bunyod qilingan Katqal'a ilk va rivojlangan o'rta asrlarda madaniy-xo'jalik markazlardan biri bo'lib, shaharsozlik madaniyati va ilk davlatchilikni rivojlanishida o'z o'rniga ega. Milodiy VI asr ikkinchi yarmidan Katqal'a aholisi soni oshganligi sabab, ularning bir qismi tashqi devor atroflariga joylashishi munosabati bilan qishloqlar vujudga kelgan. Shunday qishloqlardan biri Bushkanz bo'lib,

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyundagi "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risidagi Farmoni. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risidagi Qonun (O'RQ-406-son).

unda dunyoni gʻaflatdan uygʻotgan daxo Abu Rayxon Beruniy bu olamga chiqqan. Katqalʼa uch qismdan, ark, shahriston va rabotdan iborat boʻlib, uning maydoni 219 gektar boʻlgan. 712-yilda Xorazmga qarshi harbiy harakatlari arafasida kelgan arab geografi at-Taboriy asarida Gurganch, Kat va Xazorasp qalʼalari toʻgʻrisida ilk maʼlumotlarni qayd qilgan.²⁹ Arab geografi voha aholisi hayot va ijod uygʻunligi boʻlgan Amudaryo sohil etagiga ulanib ketgan tekislik va balandliklarda qad koʻtarilgan qalʼalarni qayd qilmaydi. Arab geografi va sayyoxi Al-Belazuriy “Kitob futux al-buldon” asarida Xorazm oʻng sohil hududida istehkomli Kat, uning maydoni Samarkand bilan tengdosh (219 gektar) ekanligi toʻgʻrisida xulosani qayd qilib, Xorazm shahri toʻgʻrisida quyidagilarni qayd qilgan: “Xorazm uch qismdan iborat, ular atrofi xandaqlar bilan oʻrab olingan. Al-Fir shaharning eng mustahkam qismidir (bizningcha ark). Shahar oʻrtasida joylashgan katta hajmga ega boʻlgan xovuz aholini suv bilan taʼminlagan³⁰. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyni hozirgi kungacha ilmiy ahamiyati saqlanib kelayotgan fundamental asarida Janubiy Xorazm hududida siyosiy manzarani aks ettirgan Afrigʻiylar davlati faoliyatiga imkon bergan Tuproqqalʼadan poytaxt Katqalʼa boʻlganligi toʻgʻrisida maʼlumotlar qayd qilingan³¹. X asr birinchi yarmida Xorazmga kelgan arab geografi al-Istaxriy asarida Katqalʼa tarixiga oid axborotlar geografyasi keng. Chunonchi, “Xorazm” poytaxti Oksning shimolida joylashgan, mamlakatning bosh shahri Xorazm tilida Kot deyilgan. Biroq uni Oks daryosi vayron qildi, xalq esa, uning orqa tomonidan makon tutdilar. Daryo (Jayhun) yana qalʼaga yaqinlashib kelgan. Qalʼaning nurash ehtimoli bor (mudofaa devori). Jomʼe masjidi qalʼaning orqasidadir. Xorazmshohlar saroyi jomʼe masjidi yaqinida joylashgan, shahar oʻrtasidan Jardur inshooti oʻtgan. U shahar va bozorni ikki qismga ajratib turadi. Shaharning uzunligi 1/3 qismga yaqin. Shaharning vayron qilgan devorlari darvozalari saqlanib qolmagan. Qolgan qismi vayron boʻlgan qismi orqasida, vohaning quyirogʻida qurilgan. U Oks daryosi gʻarbiy sohilida joylashgan, Jurjoniyan 3 kunlik yoʻl. Nomaʼlum muallif “Hudud ul-alam” asarida “Kos”ni guz-turk mulklarini darvozasi, Turkiston, Mavoraunnahr va Xazardan keluvchi savdo karvoni toʻplanadigan joy, aholi gʻazobtalab va jangovardir, shahar juda boy boʻlib, u yerdan yostiqlarga yopchiqlar, kiyim, karbos, jun, yax, ruxbin (sut mahsulotlari) sotib olib ketar edilar³². X asr ikkinchi yarmida kelgan arab geografi al-Muqaddasiy “Kosni shahriston ham der edilar. Amudaryoning sharq tomonida. Unda jamʼe masjidi bozor oʻrtasida joylashib, masjid odam boʻyi keladigan qora tosh ustiga yogʻoch ustunlar qurilgan. Shahar obod, olimu-fuzalolarga serob, aholisi toʻq, oziq-ovqatga moʻl-koʻl yashaydi, shahar mohir meʼmorlarga boy. Bunday mohir odamlarni Iroqdan qidirib topish amri maoldir. Ular ajoyib qiroat qiladilar, chehralari ham hushmanzaradir. Bu holni boshqalar ham qayd qilganini esga olgan.³³ Ya.Gʻulomov fundamental asarida Katqʼala ilk va rivojlangan oʻrta asrlarda iqtisodiy-madaniy jihatidan taraqqiy etgan etganligi tugʻrisida xulosalari oʻrin olgan.

²⁹ МИТТ, 1939. – С. 180-181.

³⁰ Ал-Белазурий. Арабские источники VII–X веков. – М-Л.; Наука, 1960. – С.22-29.

³¹ Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент; Фан, 1965. – Б.71.

³² МИТТ, Т-1, 1939. – С.186

³³ МИТ, Т-1, – С.186-187.

TADAQIQOT METODLARI:

- Ilmiy tahlil;
- Xronologik izchillik;
- Qiyoslash, munozara va asoslash;
- Mantiqiy xulosa;
- Etnografiya, arxeologiya, geografiya fanlari yutuqlaridan foydalanish.

Tahlil. Yozma manbalar va tadqiqotchilar asarlarida qayd qilingan ma'lumotlar nazariy-qiyosiy tahlil asosida umumlashtirilgan mantiqiy xulosaga tayangan holda, Katqal'a yodgorligi qadimgi, ilk va rivojlangan o'rta asrlar tarixi tahlil qilingan.

Natijalar. Amudaryo o'ng va so'l hududlarida mil. av. IV-III asrlardan boshlab, rivojlangan o'rta asrgacha bo'lgan davrda Katqal'ani topografik joylashishi, mudofaa inshootlari tarixini yangicha qarashlar va yondoshuvlar asosida natijalar qayd qilingan.

Xulosa. Mil. av. IV asr oxiridan Ahamoniylar davlati tarkibidan ajralib chiqqan Xorazm davlatining ichki siyosatida Amudaryo o'ng va so'l sohili hududlarini o'zlashtirib, Amudaryodan chiqarilgan magistral sug'orish inshootlari boshi, o'rtasi va oxirida kichik, o'rtamiyona va miqdor jihatidan katta qal'alar qurilishini olib borish bo'lgan. Shunday qal'alardan biri Amudaryo o'ng sohili etagiga ulanib ketgan tekislikda bino qilingan Katqal'aning tarixiga oid xulosalar qayd qilinadi.

Takliflar. Amudaryo o'ng sohili adog'iga ulanib ketgan tekislikda aholi hayot uyg'unligi bo'lgan Katqal'ani saqlanib qolgan mudofaa devori bir qismi asosida qadimiy va rivojlangan holatini qaytadan tiklash taklif qilinadi.

Qizilqum va Qoraqum oralig'ida paleotektonik harakatlarni birnecha marotaba takrorlanishi natijasida vujudga kelgan Orol tasvirini namoyon qilgan tekislik geografik adabiyotlarda Xorazm-Toshhavuz atamasi bilan ma'lum. Turon pasttekisligi shimoli-g'arbiy qismida joylashgan Xorazm vahosi geografik manzarasi, tabiiy-iqlim va tabiiy resurslari va aholining joylashishi jihatidan O'zbekistonning boshqa tabiiy-geografik hududlaridan farqlanishi kuzatiladi. Afsonalar va turli etnotoponomika atamalarga ega bo'lgan zamin ziroatkor aholi sug'orma dehqonchilik, shaharsozlik madaniyati hamda o'zbek davlatchiligi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi O'zbekistonning tabiiy-geografik hududlarida istiqomat qilgan aholi qo'shgan ahamiyatidan kam emas. Amudaryo faoliyati asrlar mobaynida suv tarkibida mineral moddalarga serob bo'lgan loyqa qatlamlarini yotqizishi munosabati bilan vujudga kelgan Xorazm vohasi o'ng va so'l hududlari geografik holati, aholi joylashishi jihatidan bir-biridan farqlanish hususiyati tabiiy-fizik xaritada yaqqol aks etgan³⁴. Xorazm vohasida istiqomat qilgan ajdodlarimiz yozma manbalarda turli nomda qayd qilingan bo'lsada, chorvador aholi bilan hamkorlik munosabatlarini olib borish jarayonida tabiiy resurslardan o'z manfaatlariga xizmat qildirib, kasbi-korlarini rivojlantirib, yangi-yangi ixtirolar bilan murakkab tarixiy yo'l sari shahdam qadam tashlaganlar.

Amudaryo o'ng va so'l sohil hududlarida ziroatkor aholi tomonidan qoldirilgan turar-joylarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida olingan ashyolar Katqal'a tarixini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Mil. av. IV asr oxiridan Ahamon davlati tarkibidan mustaqil ajralib chiqqan Xorazm davlati ichki siyosati asosiy mazmuni Qizilqum va

³⁴ Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – Тошкент, : «Ўқитувчи», 1966, - Б.20.

Qoraqum oralig'ida sernam va serunum hududini o'zlashtirish bo'lgan. Mil. avv. IV-III asrlarda Xorazm davlati hukmdorlari (Farazman, Kayxusrav) Quyi Amudaryo hududida o'ng sohil hududida Kaltaminor, Tozabog'yob va Amirobod magistral kanallarini, so'l sohili hududlarida Amudaryoning Dovdon va Daryolik irmoqlaridan ikki yon tomonga sug'orish shahobchalarini chiqarib, ularni boshi, o'rtasi va adog'ida qal'alar qad ko'tarilishi klassik darajaga ko'tarilishi munosabati bilan dexqonchilik vohalarini qamrab olgan mikrovohalardan biri Katqal'a bo'lgan. Milodiy 305-yildan 995-yilgacha Janubiy Xorazmda Arsamux hukmronligida Afrig'iylar davlati poytaxti Katqal'a bo'lgan bo'lsa, Shimoliy Xorazmda esa somoniylar davlatidan mustaqillikka erishgan Xorazm davlati mavjud bo'lib, uning poytaxti Mizdahkon bo'lgan. Shu tariqa, Xorazmda ikki mustaqil davlat siyosiy tarqoqlikni namoyon qilib, bir-biridan cho'chigan holda faoliyat olib borganlar.

995-yilda Shimoliy Xorazm davlati hukmdori Ma'mun-1 tashqi siyosatda asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri hududni kengaytirish maqsadida olib borgan harbiy harakatlari natijasida Afrig'iylar sulolasi vakillari faoliyatlari tarix sahifasidan abadiy yakun topgan³⁵. 995-yildan 1017-yillarda Xorazm vohasi siyosiy manzarasini Ma'muniylar davlati namoyon qilib, uning poytaxti Gurganch bo'lgan. Katqal'a siyosiy markaz sifatida ahamiyatini yo'qotgan bo'lsa ham, rivojlangan o'rta asrlarda savdo va hunarmandchilik markazi bo'lishi bilan birga daryo aloqa yo'li rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Yu.P.Manilov Katqal'ada olib borgan arxeologik izlanishlar natijasida antik, ilk va rivojlangan o'rta asrlar jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va etnik jarayonlar hamda Xorazm davlatchiligi taraqqiyotida egallagan tarixiy o'rnini o'rganishga xizmat qiladigan manbalar olingan. Beruniy shahridan janubi-g'arbida joylashgan Katqal'a to'rt tomoni mudofaa devor bilan o'rab olingan, uni g'arbiy devor uzunligi 621 metr, janubi 206 metr, shimoliy devor saqlanib qolgan tashqi devorida yarim aylana burjlar qoldiqlari sakqlanib qolgan, ular orasidagi mudofaa maydoni 33 metr, uning yon tomonga o'sib chiqishi 6 metr, kengligi 3,5 metr. Shimoliy va janubiy devor o'rtasida darvoza joylashgan. Yodgorlikning daryodan boshlab saqlanib qolgan maydoni 40 gektar. Katqal'a g'arbiy devorida qazishma ishlari olib borilishi munosabati bilan milodiy IX-XI asrlarga tegishli manbalar olingan.

Shunday qilib, yuqorida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar quyidagi yakuniy xulosaga kelish imkonni yaratdi:

- Mil. avv. IV asrdan markazlashgan Xorazm davlatini ichki siyosatida Amudaryo o'ng va so'l sernam va serunum tekisliklarni obod diyorga aylantirish maqsadida ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlagan aholi tomonidan qad ko'tarilgan turar-joylardan biri Katqal'a bo'lgan.

- Milodiy 305-yildan 995-yilgacha Janubiy Xorazm davlati siyosiy manzarasini Afrig'iylar sulolasi vakillari boshqargan, poytaxt Katqal'a bo'lgan.

- 995-yildan Katqal'a siyosiy ahamiyatini yo'qotgan bo'lsa ham, Xorazmshohlar davlati davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlar yuksak darajada rivojlanishida o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

- IX asrdan boshlab Katqal'a xalqora muloqot yo'lini daryo yo'nalishi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan.

³⁵ Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент, 1959. – Б.180-183.

- X-XIII asrlar boshlarida Xorazm tarixini siyosiy manzarasini namoyon qilgan Buyuk Xorazmshohlar davlati davrida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarning yuksak darajada rivojlanishi “Oltin davri”da Katqal’a boshqa madaniy-xo‘jalik markazlari qatorida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va diniy-mafkuraviy markaz vazifasini bajargan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyundagi “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risidagi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risidagi Qonun (O‘RQ-406-son).
2. Ал-Белазурий. Арабские источники VII–X веков. – М-Л.: Наука, 1960. – С.22-29.
3. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент.: Фан, 1965. – Б.71.
4. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – Тошкент.: «Ўқитувчи»,1966, – Б.20.
5. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент.: 1959. – Б.180-183.